



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - may

VI-61-96-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-son Qarori 19-bandining tumanda ijrosini ta’minlash va faoliyatining natijadorligini o‘rganish hamda o‘rganish natijalari holati haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Angor tumanidagi Xalq qabulxonasi mudirining axboroti to‘g‘risida

Angor tuman Xalq qabulxonasi tomonidan hokim yordamchilarining asosiy vazifalaridan bo‘lgan, mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash bilan bog‘liq faoliyati tahlil qilindi.

Angor tuman Xalq qabulxonasi tomonidan tumandagi mahallalardagi hokim yordamchilari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar hamda ish faoliyatlarining samaradorligi kelib tushayotgan murojaatlar tahlili asosida o‘rganildi.

Hokim yordamchilari tomonidan fuqarolar murojaatlariga hamda o‘z hududidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning bandligini ta’minlashga ijtimoiy holatini yaxshilashga yetarli darajada e’tibor qaratilmayotganligi natijasida hokim yordamchilari faoliyati bilan bog‘liq masalalardagi murojaatlar soni ortib bormoqda.

Xususan, joriy yilning 30-mart holatiga muhtojlarga bir martalik yordam va maishiy texnika bilan ta’minlash masalasidagi murojaatlar **“O‘zbekiston”** mahallasida 38 taga, **“Xomkon”** mahallasida 28 taga, **“Chinobod”** mahallasida 13 taga, **“Qoraqir”** va **“Gilambob”** mahallalarida 11 tadan, murojaatlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan ko‘paygan.

Angor tumanida yashovchi fuqarolardan kam ta’minlangan fuqarolarga moddiy yordam ajratish masalasidagi murojaatlar **“Bahor”** mahallasida 13 taga, **“Ilg‘or”** mahallasida 12 taga, **“Yuqori Tallashqon”** mahallasida 9 taga, **“Qo‘shtegirmon”** mahallasida 2 taga, **“To‘lqin”** mahallasida 1 tadan ko‘paygan.

Ish bilan ta’minlash masalasidagi murojaatlar **“Navro‘z”** va **“O‘zbekiston”**

mahallalarida 17 tadan ko‘paygan.

Joriy yildan boshlab “Onlayn mahalla” platformasi orqali hokim yordamchilariga bevosita kelib tushgan murojaatlarni va ulardagi masalalarni hal qilish uchun platforma orqali ko‘rib chiquvchi tashkilotlarga yuborish va bu orqali fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliklarining oldini olish maqsad qilingan bo‘lsa-da, Angor tumanidagi barcha hokim yordamchilari tomonidan ushbu platforma orqali fuqarolarning murojaatlari ro‘yxatga olinmagan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvar kunidagi kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida, hokim yordamchilariga har kuni bittadan yangi ish o‘rnini yaratish va bir kishini bandligini ta‘minlash vazifasi berilgan bo‘lib, ushbu vazifaning hokim yordamchilari tomonidan ijrosi ta‘minlanishi o‘rganilganida, hokim yordamchilari, o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni to‘liq anglab yetmasligi va javobgarlikni to‘liq his etmasligi natijasida bu yo‘nalishdagi faoliyatni o‘zi bo‘larchilikka tashlab qo‘yishgan.

2023-yilning fevral oyida “Angor tuman mahallabay ishlash markazi” tomonidan mavsumiy ishga joylashtirish to‘g‘risidagi hisobotlarda 1837 nafar fuqarolar mavsumiy ishga joylashtirilganligi ko‘rsatilgan.

Mazkur ma‘lumotlar o‘rganilganda fuqarolarning 39 nafari ro‘yxatga 3 martadan kiritilgan bo‘lsa, 64 nafari 2 martadan kiritilgan, bundan ko‘rinib turibdiki markazda ma‘lumotlarni tahlil qilish va hisob-kitob ishlari o‘z holiga tashlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Angor tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri O‘.G‘afforovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-son Qarori 19-bandining tumanda ijrosini ta‘minlash va faoliyatining natijadorligini o‘rganish hamda o‘rganish natijalari holati haqida axboroti xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi majlisida eshutilganligi va ko‘rib chiqilganligini hamda bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-son Qarori 19-bandining tumanda ijrosi yuzasidan 2022-yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Angor tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri O‘.G‘afforovning axboroti ma‘lumot uchun

qabul qilinsin.

2. Angor tumani hokimligi, tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi:

- 36 ta hokim yordamchilarining faoliyatida tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalarini alohida nazoratga olib, eng ko'p murojaatlar kelib tushayotgan va murojaatlar soni ortishiga sabab bo'layotgan "O'zbekiston", "Xomkon", "Chinobod", "Qoraqir", "Gilambob", "Bahor", "Ilg'or", "Yuqori Tallashqon", "Qo'shtegirmon", "To'lqin" va "Navro'z" mahallalarida, ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam bilan bog'liq murojaatlar ko'payganligi sababli aholining boqimanda kayfiyatini yo'qotish maqsadida bandligini ta'minlashga qaratilgan tegishli chora-tadbirlar belgilash;

- murojaatni o'rganishda «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonun talablarini buzgan hokim yordamchilariga nisbatan qonuniy choralar ko'rish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi hamda Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi:

- Angor tumanidagi mahalla fuqarolar yig'inlarida faoliyat olib borayotgan hokim yordamchilari, xotin-qizlar faollari hamda yoshlar yetakchilari hamkorligini yo'lga qo'yib, barcha murojaatlarga alohida e'tibor qaratib, murojaatlarni ijobiy hal etish chorasini ko'rib, yoshlar va xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularning bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratib, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish choralari ko'rsin.

4. Sektor rahbarlari, tuman hokimining tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari, boshqa tashkilot va idora rahbarlari, tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi hamda Yoshlar ishlari agentligi Angor tuman bo'limi:

- sektorlar shtabida shakllantirilgan "Temir daftar", "Ayollar daftari" hamda "Yoshlar daftari" ro'yxatiga kiritilgan oilalarni haqqoniy o'rganib, eng avvalo, ishlash imkoniyati va xohishi bor, lekin sharoiti og'ir oilalarni o'qitish va o'z ishini boshlashi uchun imtiyozli kredit, subsidiya yoki dehqon xo'jaligi uchun ularga yer maydonlari ajratish, tadbirkorlik va dehqonchilikka o'rgatish orqali kambag'allikdan chiqarish, bu borada mahallada tadbirkorlik va dehqonchilikni rivojlantirish uchun oilalarni zarur asbob-uskunalar va ish qurollari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratib, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, ish o'rni yaratish, kambag'allikni qisqartirish va oilalar daromadini ko'paytirish choralari ko'rsin.

5. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan **har chorak yakuni** bilan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

6. Tuman hokimligi Axborot xizmati va “Angor yog‘dusi” gazetasi (G.Jumayeva)ga tumanda investitsiya loyihalarini amalga oshirish sohasidagi ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Y.Xalimov) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov